

44-61 2022

2022-yilda dehqonchilik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan 560 ming nafar yoshga yer berildi.

Ajratilgan yer: 155 ming gektar;

Yaratilgan ish o'ni: 800 mingdan ortiq.

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

44 (16497)
2022-yil, 2-iyul
shanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Mukofot sohiblari 3-bet


Volontyorlikdan "Kelajak bunyodkori" gacha

Mahallada yoshlar yetakchisi 5-bet

"Olimlar" yetakchisi

Motivatsiya 6-bet

Buyuklikka erishish murakkabmas, faqat...



Daryo.uz / Madina NURMAN

YOSHLARGA YANGI IMKONIYATLAR

30-iyunda Yoshlar kuni munosabati bilan "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida o'tkazilgan bayram tadbirlarida 120 mingdan ziyod yoshlar ishtirok etdi.

2-betga
qarang

YOSHLAR KUNIDA

YOSHLARBOP IMKONIYATLAR

Shahruza SATTOROVA, "Yoshlar ovozi" muxbiri

30-iyun kuni poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida Yoshlar kuni-ga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tantanali kechada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi. Davlatimiz rahbarining tegishli farmon va qaroriga asosan, "Kelajak bunyodkori" medali va "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlangan yoshlarga esdalik nishonlari topshirildi. Prezidentimiz o'z so'zida G'afur G'ulomning "Agar sen osmonni

olmoqchi bo'lsang, men nechun yelkamni tutib bermayin?" degan misralarini tilga olib, Prezident sifatida yoshlar uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga tayyor ekanini ta'kidladi.

Darhaqiqat, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy kasblarni egallashga ko'maklashish maqsadida ularga bir qator imtiyozlar yaratib berilmoqda.

14-17 YOSHLILAR "YOSHLAR DAFTARI"GA KIRITILADI

"Yoshlar daftari"ga 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan og'il-qizlar kiritilib, ularga alohida imtiyoz va yengilliklar yaratiladi. Endilikda 14-17 yosh oraliqidagi 3 million nafarga yaqin yoshlarga ham "Yoshlar daftari"da ko'zda tutilgan imtiyoz va yengilliklardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan og'il-qizlarga zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganishi uchun **oyiga 1 million 200 ming so'mdan subsidiya beriladi**. Shuningdek, yoshlarga ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlaridagi to'garaklar uchun **6 oy davomida 300 ming so'mdan pul to'lanadi**. Bu yo'nalishlar bo'yicha mahalliy olimpiadalar-da qatnashish xarajatlari uchun 1 million 200 ming so'mdan, nufuzli xalqaro olimpiadalar uchun 12 million so'mdan mablag' ajratiladi.

"Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari uchun yilda bir marotaba maktab formasi hamda o'quv qurollarini sotib olish xarajatini davlat o'z zimmasiga oladi.



TO'DAKO'LDA SHAXMAT MAKTABI QURILADI

Tadbirda Yoshlar ishlari agentligining yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida olib borayotgan qator loyihalari e'tirof etilib, "Besh tashabbus olimpiadasi" yiliga ikki marta o'tkaziladigan bo'ldi.

Bu tashabbuslar doirasida kitobxonlikni yanada kuchaytirish maqsadida viloyatlar, tuman va shahar hokimlari har bir maktab kutubxonasiga kamida mingtadan yangi badiiy adabiyotlar yetkazib beradi.

Kelgusi yilda To'dako'l'da dunyo standartlariga javob beradigan xalqaro shaxmat maktabi qurilishi yoshlar uchun yana bir quvonchli voqeaga aylandi.

TEXNIKUMGA QABUL YILIGA IKKI MARTA BO'LADI

2022-2023-o'quv yilidan boshlab maqom xonandaligi, maqom cholg'u ijrochiligi va baxshichilik yo'nalishlariga qabul qilingan talabalarning shartnoma to'lovlari to'liq davlat tomonidan to'lab beriladi. Fortepiano ijrochilari tayyorlash bo'yicha qabulni 3 barobarga ko'paytirilib, bu yo'nalishda ham kontrakt to'lovlari davlat tomonidan to'lab beriladigan bo'ldi.

Bundan tashqari, endi texnikumlar-ga qabul yilda ikki marta tashkil etilib, talabalar uchun davlat granti soni ikki barobarga oshiriladi. Shuningdek, texnikumlar uchun ta'lim krediti joriy qilinadi va 80 mingdan ziyod yoshlarga kredit berish uchun moliyaviy resurs ajratiladi.

Hali bu hamma emas. Bundan buyon xususiy ta'lim muassasalarida IT bo'yicha o'qish (dasturlash, veb-dizayner, animatsiya) istagini bildirgan yoshlarga ham **20 million so'mgacha miqdorda 4 yillik imtiyozli kredit taqdim etiladi**. Har yili oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limiga o'qishga qabul qilingan 500 nafar eng faol yoshlar yetakchilarining kontrakt to'lovlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan to'lab beriladi.

MUNOSABAT

YANGI G'OYALAR BILAN QUROLLANDIK

Yil boshidan mahallalarda yoshlar yetakchilari shtati joriy qilinib, respublikamizdagi har bir mahallada "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazildi. G'oliblikni qo'lga kiritgan eng faol og'il-qizlar, yoshlar yetakchilari poytaxtimizdagi Yoshlar kuniga bag'ishlab "Yangi O'zbekiston" bog'idagi tantanali bayramda qatnashdi.

Ma'lumki, yurtimizda Yoshlar kuni besh yildan buyon o'tkazib kelinadi. Bu yilgi bayram tantanalari keng qamrovli bilan ajralib turdi. Prezidentimiz Yoshlar kuni munosabati bilan tadbir qatnashchilarini samimiy tabrikladilar, shuningdek, ko'p sohada qilingan ishlarni e'tirof etdilar.

Masalan, mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani, mahallalarda 9,5 ming nafar yoshlar yetakchilari o'z faoliyatini boshlaganini alohida ta'kidladilar. Hozirga qa-

dar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 700 ming nafardan ortiq yigit-qizlarning muammolarini hal etishga 650 milliard so'm ajratilganini, so'nggi ikki yilda 174 ming nafar yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 4 trilyon 400 milliard so'm imtiyozli kreditlar yo'naltirilganini aytib o'tdilar.

Men o'zim davlatimiz rahbarini Kitobxonlik pavilonida kutib oldim va ular bilan muloqotda bo'ldim. Yurtboshimiz, ayniqsa, kitobxonlik yo'nalishidagi ishlarini davom ettirishga yanada ko'proq e'tibor qaratishni alohida ta'kidlab o'tdilar. Har bir maktabga mingdan ziyod kitoblar yetkazish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu kabi e'tiroflar, qo'llab-quvvatlashlar bizga judayam katta kuch, rag'bat berdi. Kichik mehnatimizni yuqori baholab, shaxsan minnatdorchilik bildirganlaridan boshimiz ko'kka yetdi. Biz keyingi bir yil uchun kuch, yangi-yangi rejalar, g'oyalar bilan qurollandik.

Dilnoza KAT'TAXANOVA,
O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi
direktori o'rinbosari



VOLONTYORLIKDAN “KELAJAK BUNYODKORI”GACHA

Zarnigor Ubaydullayeva yurtimizning faol volontyor yoshlaridan biri. U 1994-yil 19-martda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida tug'ilgan. "Kamalak", Yoshlar ittifoqi tizimida volontyor, sardor bo'lib ishlagan. Ayni paytda Yoshlar ishlari agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati bo'yicha mutaxassisi lavozimida ishlamoqda. Zarnigorga bir nechta savollar bilan murojaat qildik.

- Siz uchun yoshlik imkoniyati nima?

- "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi" deb bezir aytilmaydi. Uning har bir lahzasini unumli yashasangiz, keyingi hayotingizda asqotadi. Mas'uliyatli lavozimga ko'tarilsangiz, ko'proq shu davrdagi bilimlaringizga suyanarsiz. Yoshlik imkoniyatini men vaqtga - vaqtida olinadigan bilim, tajribaga qiyoslayman.

- Yutuqlaringizga sababchi bo'lgan, siz bilan yelkadosh insonlar bormi?

- Inson orzu-maqсадlari sari yolg'iz o'zi kurashadi. Uni qo'llab turuvchi oilasi, yaqinlarining bo'lishi qo'shimcha kuch deb o'ylayman. Menda ham shunday insonlar bor. Ular rahmatli otajonim, aka-ukam, onam va ustozlarim, jamoam hisoblanadi. Qiz bola bo'lganim uchunmi, ish, o'qish jarayonida qiyinchilikka uchrasmam, o'zimga "Bo'ldi, men uchun emas bu ish", deb tashlab ketgim kelgan paytlar bo'lgan. Shunda onamning doim aytadigan bir gap bor: "Yaxshi niyat qil, hamma gap yaxshi niyatda, xavotir olma, erishmasang ham, yo'qotadigan narsang yo'q".

"Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlanganimni otam ko'rganlarida, quvonchim otamning xursandchiligi bilan to'la-to'kis bo'lar edi...

- Jamiyatda o'z o'rnini topayotgan yoshlardan biri sifatida tengdoshlaringizga qarata nima degan bo'lardingiz?

- Inson vaqtini qadrlashi kerak. Agar men bundan oldinroq harakat qilganimda, izlanganimda, balki ko'proq yutuqlarga erishgan bo'lardim. Prezidentimizning Yoshlar kunidagi nutqida Prezident maktablaridan Chikago, Oxford universitetlariga grand asosida qabul qilingan yoshlarni eshitganimda "men ham sal avvalroq harakat qilganimda, til o'rganganimda, chet ellarda o'qishim mumkin edi", degan narsa xayolimga keldi. Yoshlar ilm olishsin, kamida ikkita tili o'rganishsin, degan bo'lardim.

- Kelajakdagi rejalariniz?


- Faoliyatim davomida "Qizlar ovozi" klubining Farg'ona viloyati kengashida ham ishlaganman. U yerda hozir ham hamfirkman. Kelajakdagi asosiy rejalarimdan biri ayollar, qizlar hayotini yengillashtirishga qaratilgan loyihalar ustida ishlash, yangi loyihalar yaratishdir.

"Yoshlar ovozi" muxbiri
Mashhura NASRIDINOVA suhbatlashdi.



MUNOSABAT

ORZUM USHALDI



Sardorbek ORIFOV,

Yoshlar ittifoqining Farg'ona viloyati kengashi referenti

Yoshlar tizimida 4 yil volontyor sifatida mehnat qildim. Ayni paytda Yoshlar ittifoqining Farg'ona viloyati kengashi referentiman.

Faqat ta'lim olish va faol yoshlardan biri bo'lish meni o'z maqsadimga olib borishi mumkin edi. Ammo oilaviy sharoitim sabab oliy ma'lumot olish imkoni bo'lmadi. Qishloq farzandi bo'lganim sabab bizda oliy o'quv yurtida tahsil olish, davlat tashkilotlarida ishlash ushalmas orzu edi.

Yoshlar kuni arafasida Yoshlar ittifoqi tizimi rivojiga hissa qo'shgan, tabiiy yetakchilik qobiliyatiga ega fidoyi yoshlardan 14 nafari OTMlarga imtiyozli qabul qilingan bo'ldi. Ular safida men ham borman. Ozularimdan biri ushaldi. Mehnatlarim samarasi, ota-onamning duolari sabab endi men ham talabaman. Men bunga munosib bo'lishga harakat qilaman.

Kelajakdagi maqsadlarimdan biri mahallamizda mo'jaz kutubxona ochish, zamonaviy kasblarni, kompyuter savodxonligini qishlog'imdagi yoshlarga beminnat o'rgatishdir.

PREZIDENT NAMANGANLIK BEMOR QIZNING MAKTUBIGA JAVOB YO'LLADI

Prezidentimiz yaqinda Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi faoliyati bilan tanishib, shifo maskanida davolanayotgan bolalar davlat rahbariga yo'llagan maktublarni olgan edi. O'shanda "Hammasini o'qib, albatta javob beraman", degan edi Prezident.

Ular orasida Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi "G'alaba" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Marjona Murodillayevaning ham Prezidentga yozgan maktubi bor edi. Shavkat Mirziyoyevning javob xati o'z manziliga yetib bordi. Namangan viloyati hokimi Shavkat Abdurazzoqov Marjona yashaydigan xonadonda bo'lib, unga va ota-onasiga Prezidentimizning javob xatini o'qib eshittirdi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori Avazbek Vohidov Marjonaga xatida izhor etgan orzu-istagi ro'yobi - universitetga talabalikka qabul qilangani to'g'risidagi sertifikatni topshirdi.


O'ZA

KONSTITUTSIYA

– YOSHLAR TAQDIRINI HAL QILUVCHI KAFOLATLAR MAJMUASI

Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Davlatimiz tomonidan har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Endilikda bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida izchil davom ettiriladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar yuzasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillarining fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.



O'ZA muxbiri
Muhtarama KOMILOVA tayyorladi.

SOTSIOLOGIK
TADQIQOTLARGA KO'RA,
YOSHLAR IJTIMOY-
SIYOSIY JARAYONLARDA
ENG FAOL VA ENG
KATTA QATLAM SIFATIDA
ISHTIROK ETMOQDA.

**Shahnoza
JOLDASOVA,**
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi huzuridagi
Yoshlar parlamenti
raisi:



– Bugungi kunda konstitutsiyaviy islohotlar eng qizg'in bosqichda, ya'ni konstitutsiyaviy qonun loyihasi xalqimiz tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ushbu jarayonlar haqida to'xtalar ekanman, avvalo, Prezidentimizning Konstitutsiyaviy komissiya vakillari bilan uchrashuvda bevosita ishtirok etib, ko'tarilgan barcha masalalar aholini uzoq yillardan beri o'ylantirayotgan muammolar ekanligini his qilganimni ta'kidlamoqchiman.

Qator oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlar bilan bo'layotgan uchrashuvlar davomida berilgan savollar, fikr-mulohazalardan anglayapmizki, davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar masalalariga oid ilgari surilgan takliflar yoshlarning dilidagi xohish-istaklar ekan. Bu boradagi takliflarning Bosh qomusimizda aks etishi mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati bundan keyin ham izchil davom etishini isbotladi va o'z o'rnida respublikamizdagi barcha yoshlarga katta motivatsiya beradi.

Masalan, Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga ko'ra, Konstitutsiyaning 41-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga ko'maklashishi, har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirishi uchun majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlashi o'z aksini topgan. Shuningdek, bepul umumiy o'rta ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi, umumiy o'rta ta'lim majburiy ekanligi, maktab ishlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat nazoratida bo'lishi kabi lar mustahkamlanmoqda.

Yana bir muhim jihatni alohida e'tirof etish joiz. Ushbu moddada ta'lim bo'yicha alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiya tashkil etilishi o'z aksini topgan. Shuningdek, davlat iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar, ta'limni davom ettirishini kafolatlaydi. Davlatga qarashli, xususiy va boshqa shakldagi ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarini rivojlantirish uchun davlat teng shart-sharoitlar yaratadi.

Bosh qomusimizda bu kabi normalarning ifodalaniishi mamlakatimiz ertasi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Xurshid
BOTIROV,**
Qonunchilik palatasi
huzuridagi Yoshlar
parlamenti qo'mita
raisi:



– Yangi O'zbekiston chin ma'noda yangi va dadil maqsadlar bilan oldinga qadam tashlamoqda. Bunday vaqtda Konstitutsiya va qonunlar ham xalqning orzu va maqsadlaridan, ertangi kungi rejaları va o'tgan davr xulosalaridan kelib chiqib, albatta, takomillashuvi talab etiladi. Ayni shunday pallada yoshlarning huquq-manfaatlarini asosiy qonunda mustahkamlash zarurligi Prezidentimizning shaxsan o'zi tomonidan tashabbus qilindi va bularning bari Konstitutsiyaviy qonun loyihasida o'z ifodasini topdi.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda eng faol va eng katta qatlam sifatida ishtirok etmoqda. Ularning o'z maqsad va rejalarini ro'yobga chiqarishi uchun mahallalarda, yoshlar tashkilotlarida, jamoat birlashmalari va ta'lim muassasalarida turli imkoniyatlar yaratilgan. Ammo ular mamlakat hayotida kuzatuvchi emas, jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida qatnashishni xohlaydi.

Shu o'rinda qayd etmoqchiman, Konstitutsiya bilan yoshlar ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam sifatida davlat va jamiyat himoyasida bo'lishi, analik va bolalik bilan birga otalikning ham davlat tomonidan muhofaza qilinishi ayni zarur ehtiyoj hisoblanadi. Shuningdek, bolaning sog'lom rivojlanishi uchun imkoniyat yaratish hamda Bola huquqlari bo'yicha Ombudsman haqida ham aniq normalarni belgilash zarur.

Konstitutsiya nafaqat xalq farovonligi, tinchligi va totuvligi garovi, balki katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning kelajagi, taqdirini hal qiluvchi kafolatlar majmuasidir. Shu sababli yoshlarning huquqlarini kafolatlash hamda muhokamalarda ularning faol ishtirokini ta'minlash muhim masalalardandir.

**Otabek
SHAVKATOV,**
Qonunchilik palatasi
huzuridagi Yoshlar
parlamenti
a'zosi:



– 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator maqsadlar belgilangan. Xususan, yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishi eng asosiy omildir.

Prezidentimiz tomonidan xususiy mulk borasida ilgari surilgan takliflar Konstitutsiyaviy qonun loyihasida aks etayotgani o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan islohotlarning mantiqiy davomi hamda bu sohada yangilik va yengilliklarning mustahkam asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida kichik va o'rta biznesning ta'siri katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan ham iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar maktabdan boshlab yoshlarga tadbirkorlikni, biznes loyihalarni tayyorlashni o'qitadi hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, qator normativ-huquqiy hujjatlarida tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid normalar belgilangan.

Bizningcha ham, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini va yoshlarning kelajagini nazarda tutib, davlat xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmolik va investitsiyaviy muhit hamda sharoitlarni ta'minlashi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi dolzarb ahamiyatga ega.

“
DAVLAT ISTE'DODLI YOSHLAR-
NING MODDIY AHVOLIDAN
QAT'I NAZAR, TA'LIMNI DAVOM
ETTIRISHINI KAFOLATLAYDI.

2022–2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN QATOR MAQSADLAR BELGILANGAN.

“OLIMLAR” YETAKCHISI

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlangan yoshlar orasida Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Olimlar” mahallasi yoshlar yetakchisi Islom Umurzaqov ham bor.

Islom bir vaqtning o‘zida Toshkent shahridagi “Yosh maqomchilar” ansambli badiiy rahbari hamdir.

Islom UMURZAQOV,

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Olimlar” mahallasi yoshlar yetakchisi:

– O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining an‘anaviy xonandalik yo‘nalishini tamomlaganman. Maqomchilik bo‘yicha xalqaro va respublika ko‘rik-tanlovlari sovrindoriman. Davlatimiz rahbari 2021-yil 11-dekabrda Mirzo Ulug‘bek tumaniga tashrif buyurib, biz, yoshlar bilan uchrashganda “Yosh maqomchilar” ansamblini tashkil etish taklifini bergan edim. Taklif ma‘qullangach, 12 nafar a‘zodan iborat “Yosh maqomchilar” ansambli tashkil etildi.

Shu kunga qadar “Yosh maqomchilar” ansambli uchun 45 million so‘mlikdan ortiq cholg‘u asboblari xarid qilindi. Ansamblning 3 ta konsert dasturini o‘tkazdik, 16 ta badiiy-ijodiy tadbir, 10 dan ortiq uchrashuvlarda maqom san‘atini targ‘ib etdik.

Yoshlar kuni bayramida Prezidentimiz 2022–2023-o‘quv yilidan maqom xonandaligi, maqom cholg‘u ijrochiligi va baxshichilik yo‘nalishlariga yangi qabul qilingan talabalarning shartnoma to‘lovlari to‘liq davlat tomonidan to‘lab berilishini aytganida juda xursand bo‘ldim.

Sababi mahallamizda maqomchilikka qiziqadigan yoshlar ko‘p. Endi ular oliy ta‘lim olishi uchun hech qanday to‘siq qolmadi.

Mahallada san‘atga qiziqadigan yoshlar uchun “Milliy musiqa san‘ati” to‘garagi faoliyatini yo‘lga qo‘yganman. Unda ansamblimiz a‘zolari mahalla yoshlariga san‘atning turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z bilimlarini berib kelmoqda. To‘garak mashg‘ulotlari tekin olib boriladi. To‘garak a‘zolari 10 nafardan oshadi.

Mahallamizda 2022-yilda yoshlar bilan ishlash tizimini yaratish bo‘yicha 21 banddan iborat “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. “Milliy san‘atimiz – milliy boyligimiz”, “IT-texnologiyalar ko‘nikmalari va zamonaviy kasb egalari”, “Biz buyuk yurt farzandlarimiz” hamda “Yosh olimlar kengashi” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Menga mahalla yetakchisi sifatida taqdim etilgan 13 ta imtiyozning har biri bo‘yicha yoshlarimizga yordam berib kelmoqdaman. Bu imkoniyatlardan foydalanishda yoshlarga yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar beryapman.



OT SPORTI KUBOGI



ni o‘tkazdi. Unda yurtimizning turli hududlaridan 50 nafardan ziyod yosh sportchilar o‘zaro bellashdi.

Musobaqada 100, 120 va 160 metrlik to‘siqlardan oshish, otlarning ko‘rgazmali chiqishlari bo‘lib o‘tdi. Otni tez choptirganlar va to‘siqlardan xatosiz xatlab o‘tganlar g‘olib deb topildi.

Musobaqa so‘ngida har bir yosh toifasi bo‘yicha 1-o‘rinni olganlarga 30 million so‘mdan, 2-o‘ringa 20 million so‘mdan va 3-o‘ringa 15 million so‘mdan mukofotlar topshirildi.



Ko‘p yillik tarixga ega ot sportining bir nechta turlari mavjud: uloq (ko‘pkari), olomon-poyga, “ag‘darish”, “qiz quvdi” shular jumlasidan. Eng muhimi, ot sporti yoshlarning jismonan baquvvat, ruhan tetik bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shu bois yoshlar o‘rtasida ot sportini ommalashtirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi O‘zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi bilan hamkorlikda “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida navbatdagi “Yoshlar kubogi” musobaqasi-

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,

“Yoshlar ovozi” muxbiri

BESH TASHABBUS OLIMPIADASI

G‘ALABA “AHILLIK”DA

Chekka qishloqlarda iqtidorlar ko‘pligi, ayrim mahalla yetakchilari faqat rasmiyatchilik uchungina ishlayotgani, ijtimoiy muammolar yoshlar talqinida ochib berilishi kabi yumorga boy sahna ko‘rinishlari... Bular bari “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkazilgan “Quvnoqlar va zukkorlar” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida namoyish etildi.

32 096 ta jamoa, 274 267 nafar yoshni birlashtirgan tanlovning final bosqichida Buxoro viloyatining “Tilla bolalar”, Sirdaryo viloyatining “Ahillik”, Namangan viloyatining “Namanganlik bojalari”, Farg‘ona viloyatining “Smile time” hamda Samarqand viloyatining “Sam city” jamoalari 3 ta shart bo‘yicha o‘zaro bellashdi.

Jamoalar chiqishlari yoshlar orasida uchrayotgan muammo va kamchiliklar yoritib berilgani, mazmuni, hayotiyiligi, dolzarbligi, hazil-mutoyibaga boyligi, musiqiyiligi, quvnoqligi, rang-barangligi kabi mezonlar asosida baholandi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 1-o‘rinni Sirdaryo viloyatining “Ahillik” jamoasi egalladi. G‘alaba “Ahillik”ning ahilligida bo‘ldi.

Yaxshi hazillar bilan qatnashgan “Tilla bolalar” jamoasi 2-o‘ringa, “Namanganlik bojalari” 3-o‘ringa loyiq ko‘rildi. G‘olib va sovrindorlar qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Sardor SA‘DULLAYEV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



BUYUKLIKKA ERISHISH MURAKKABMAS,

FAQAT ...

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi

Katta hayotga qadam qo'yayotgan har bir yosh yelkasi-dagi mas'uliyatni his etib, o'z oldiga maqsad qo'yishi kerak. Ba'zan to'g'ri maqsadni tanlash unga erishishdan ham qiyinroq bo'lishi mumkin. Ko'pincha bu jarayonni atrofimizdagilarning bizga bo'lgan munosabati yanada murakkablashtirib yuboradi. Biroq har narsa o'zimizga bog'liq, hatto atrof-dagilarning munosabatini o'zgartirish ham.





Masalan, AQShning mashhur kinorejissor-multiplikator, rassom va produseri **Walter Elias Disney** (Walt Disney) yangi g'oyalar o'ylab topa olmaganligi uchun gazetadagi ishidan haydalgan. Biroq u bundan tushkunlikka tushmadi va 1928-yilda qisqa metrajli "Villi kemas" ovozi multfilmi bilan AQSh kinematografiyasida tovush va harakatni sinxronlashtirish usulini ishlab chiqdi. Qisqa vaqt davomida "Oppog'oy va yetti mittvoy", "Bembi", "Uyqudagi go'zal", "101 it" va boshqa folklor, etnografiya, hayvonlar va o'simliklar dunyosiga oid hujjatli filmlarning muallifiga aylandi. Bu bilan gazetadagi rahbariga yangi g'oyalar o'ylab topa olishini so'zda emas, amalda isbot-

lab berdi. Disneyning shijoati bugungi kunda hammamizga o'rnak qilib ko'rsatilsa arziydi!

Lyudovig Van Betxovenning boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa uni butunlay qobilyatsiz deb e'lon qilgan. Vaholanki, bugunga kelib uni butun dunyo buyuk nemis kompozitori, pianinochi, dirijyor va Vena klassik maktabining vakili sifatida tan olgan.

Agar u o'z vaqtida lampochkani ixtiro qilmaganida edi,

uning ustozini uni yoshligida aqlsiz va hech narsani o'rgana olmaydi deb hisoblagan ekan.



bugun biz televizorni balki sham yorug'ida tomosha qilar edik. Topdingiz, bu o'sha mashhur ixtirochi **Tomas Alva Edison!** Buni qarangi, ixtirochilik faoliyati davomida AQShning o'zida 1093 ta, boshqa mamlakatlarda esa 3000 dan ziyod patentni o'z nomiga ro'yxatdan o'tkazgan, insoniyat uchun katta qulayliklar yaratgan cho'g'lanma lampa, kinetoskop, saylovlarda ovoz hisoblagich, temir-nikelli akkumulyator, fonograf kabilarning ixtirochisi hisoblanuvchi Edison-

Buyuk fizik **Albert Eynshteyn** esa deyarli 4 yoshgacha gapirmagan. Oradan vaqt o'tib, Stanford iqtisodchisi Dr. Tomas Sovel tili kech chiqqan bemorlar uchun "Eynshteyn sindromi" atamasini qo'llay boshladi.

Navbatdagi misol qilib keltirmoqchi bo'lgan qahramonimizning hayoti esa bir necha marotaba urinsa ham, o'zi istagan oliy ta'lim muassasalari talabaligiga erisha olmayotganlar uchun yaxshi motivatsiya bo'lsa ne ajab!

Buyuk haykaltarosh **Rodenning** otasi "Mening o'g'lim ahmoq. U uch safar ham san'at maktabiga o'qishga kira olmadi", - degan ekan.

Bugun biz maktablarda o'rganadigan kimyo darsligi muqovasiga tasviri tushirilgan "Mendeleev davriy jadvali" asoschisi **Dmitriy Ivanovich Mendeleevning** Kimyo fanidan olgan eng yuqori bahosi 3 bo'lgan ekan. Xullas, shunday gaplar, aziz tengdoshlar!

Nimanidir maqsad qildingizmi, agar shunchaki maqsadligicha qolib ketmasligini istasangiz, chin dildan harakat qiling, atrof-dagilarga esa eng yaxshi chora, o'zgalarga umuman quloq solmang! Ammo dono xalqimizning "Bir kataning, bir kichikning gapiga kir", degan maqolini ham unutmashlik kerak, nazarimizda!

15 SO'MLIK "BAXT"

Kuzatishlarimdan maktablarda qizlar bitiruvchi sinfga yetishganida ularning erkin bilim olishiga yo'l qo'ymay, "O'zining sarposini o'z puliga yig'sin", deguvchi ota-onalar ko'paygandek. Eng qizig'i, shunday ota-onalarning o'zlari qizlariga kelgan sovehilarga "Maktabni bitirib, o'qigisi kelmagani uchun turmushga uzatishga ahd qilishgani"ni aytadi.

Afsuski, ko'pincha ilmga chanoq, intiluvchan qizlarning bu istaklari oila a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi, ixtiyorlari o'zlarida bo'lmaydi. Har kuni erta tongdan kech shomgacha ommaviy axborot vositalarida "Yagona najot ta'limda!", deb bong urilsa ham, shu kabi holatlar ro'y beraveradi.

Maktab formasini kelinlik libosi bilan alishtirgan kelinchakni qaynonasi biror masalada (ayniqsa, bu hisob-kitob bilan bog'liq bo'lsa) sal oqsaganini sezib qolsa, darrov chalasavodga chiqarib qo'yishi ham bugunning haqiqati. Bu biz, yoshlarda ilm olishga bo'lgan ishtiyoqning pastligi yoki imkoniyatning yetarli emasligi ortidan kelib chiqqan tushunmovchiliklar. Biz yoshlar-ku, mayli, nahotki ilmdan o'zga najot bo'lmasligini, yoshlarni faqatgina maktab ta'limi bilan cheklash katta xato ekanini kattalar fahmlashmayapti!

Esimda, bir yil avval bizga "Tarihiya" fanidan dars beradigan ustozimiz to'y-hashamlardagi isrof-garchilik, qizlarni barvaqt turmushga chiqarishning salbiy oqibatlari to'g'risida ma'ruza qilgandi. Ammo

hech qancha vaqt o'tmay, o'sha muallimning o'zi ham 18 yashar qizini majburlab turmushga uzatib yubordi. Buning asosiy sababi esa "Qo'shnilarining ig'vo aralash gap so'zi-yu qishloq qizidan olim chiqmasligi" ekan. Dab-daba-yu hashamat ramziga aylantirsa bo'ladigan "ixcham" to'y ham bo'lib o'tdi.

O'ylanib qoldim: har doim "ixcham to'y"larni xush ko'raman" deydigan muallimimizning o'zi qizini ilm olishdan mosuvo qilib, turmushga beryapti. Uning qilgan bu ishlaridan biz o'quvchi-yoshlar qanday xulosa qilishimiz kerak?!

...Vaqt o'tib o'sha ustoz yana bizga dars o'tish uchun kirdi. Anchayin kuyinib, ozib ketgani, avvalgidek emasligini ko'rib rahmim ham keldi. Bechora, qizini hashamat bilan turmushga uzatish uchun 3 yillik maoshiga teng qarz olgan ekan. Bugun bo'lsa, o'z so'zida turmaganini barchaga ochiq-oydin aytib, afsus chek-yapti.

Ustozga qarab shuni tushundimki, "To'y-to'ydek bo'lsin", deb, o'ylab o'tirmay sarflayotgan pullarimiz va qiymati pul bilan teng vaqtimiz o'rnida foydalanishimiz mumkin

bo'lgan qanchadan-qancha imkoniyatlarni qo'ldan chiqaryapmiz, boy beryapmiz. Tasavvur qiling-a, to'y qilaman deb 3 yil halovatsiz yashagandan ko'ra shu vaqt ichida kerakli xorijiy tillarni o'rganishdek savobli va foydali ishni farzandlarga ravo ko'rsa, koni foyda emasmi? Yoshlarimiz ham o'z vaqtida turmush quradi, ham mustahkam bilim va karyeraga ega bo'ladi.

Aziz tengdoshlarim, unutmaylik, ilm olish o'rniga boy berilgan yoki pulga sotib yuborilgan vaqt o'rnini hech qachon, hech narsa bosa olmaydi! To'y-hasham, mol-u dunyo o'tkinchi. Ilm olish esa ham savobli, ham xayrli ish!

Ulug'bek SHAROBIDDINOV,

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi 67-maktab o'quvchisi

“

NAHOTKI ILMDAN O'ZGA
NAJOT BO'LMASLIGINI,
YOSHLARNI FAQATGINA
MAKTAB TA'LIMI BILAN
CHEKLASH KATTA XATO
EKANINI KATTALAR
FAHMLASHMAYAPTI!


“EL ALQUIMISTA” QANDAY KITOB?



Kitobxon yoshlarni qo'llab-quvvatlash va kitobxonlikka keng targ'ib qilish maqsadida tashkil etgan loyihamizning navbatdagi soni e'tiboringizga havola etilmoqda. Loyihada siz mutolaa qilgan yoki o'qishga ulgurmagan o'zbek hamda jahon adabiyotining eng sara namunalari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishishingiz, muhimi, har bir asar haqida tuzilgan savolli viktorinamizda ishtirok etib, o'z bilimingizni sinab ko'rishingiz mumkin. Darvoqe, hamma savollarga to'liq va to'g'ri javob yo'llagan kitobxon ishtirokchilar tahririyat tomonidan maxsus sovg'a bilan mukofotlanadi.

Loyiha muallifi


Ziyoda RAHIMBOYEVA.



90 FOIZ O'ZBEK KITOBXONLAR MUTOLAA QILGAN

Bugun siz bilan 120 dan ortiq davlatda, 60 ga yaqin tilda best-seller darajasiga ko'tarilib, sevib o'qilayotgan asar haqida suhbatlashamiz. 90 foizga yaqin o'zbek kitobxonlari bir necha marta mutolaa qilgan bu asar bizga o'zbek tarjima mahorati namoyandalari: Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otayov va Gulchehra Azimova tarjimalarida, "Alkimik" yoki "Alkimyogar" nomlari bilan yaxshi tanish.

Paulo Coelho "El Alquimista". Bu asarning braziliy tilidagi nusxasi muqovasi va shu muqova bilan ko'plab Yevropa davlatlariga, musulmon davlatlaridan esa birinchi bo'lib Eronga kirib bordi. Asarni o'qib chiqqan yoki mazmuni bilan tanish bo'lganlar asardagi o'sha mashhur, motivatsion sitatani bilmasliklari mumkin emas: "Bizning sayyoramizda bir buyuk haqiqat barqaror: agar siz chindan nimanidir orzu qilsangiz, unga, albatta, erishasiz. Zotan, bu orzu olam qalbida ham tug'iladi va ayni shuning o'zi sizning Yerdagi mavjudligingiz tasdig'i, sizning taqdiringizdir". Bu so'zlarni o'qib beixtiyor o'zbek xalq maqoli esga tushadi: "Yaxshi niyat – yarim davlat". Ehtimol, shu sabab ham xalqimiz orasida bu asar sevib o'qilar...



15 KUNDA YOZILGAN ROMAN

Ko'lamlil, mazmunan falsafiy, mohiyatan esa oddiy insoniy muammo haqida yozilgan bu roman XXI asr kishilari uchun yaratilgandek go'yo. Hajman kichik bo'lgani sabab o'qib chiqish uchun u qadar ko'p vaqt talab etilmaydi. Ammo ma'no-mazmunidan kelib chiqib, kitobxonlarni bir necha marta qayta mutolaa va mulohaza qilishga undaydi. Ijtimoiy muammolar ko'tarilgan romanni yozuvchi bor-yo'g'i 15 kun ichida yozib tugatgan. Shu o'rinda Usmon Nosirning "Ilhomning vaqti yo'q, selday keladi", degan iqrori naqadar to'g'riligini nafaqat shoir, balki braziliyalik yozuvchi Paulo misolida ham ko'rishimiz mumkin.

"THE SECRET", "FORREST GAMP"...

Bu nomlar oramizdagi kino ixlosmandlari uchun begona emas. Ayniqsa, ularning biror kitobni o'qib chiqqach asar asosida ishlangan filmni ham tomosha qilishga shoshiladigan odatlari bo'lsa. To'g'ri, "Alkimyogar" asosida hozircha biror film suratga olinmadi, biroq shunday kino va hujjatli filmlar borki, suyuji, yuz beradigan ba'zi voqealar rivoji beixtiyor bizga romanni eslatadi. Ulardan biri kam mablag' sarf etilganiga qaramay, ijodkorlariga 6 barobar ko'proq foyda olib kelgan "Forrest Gamp" filmi. Uning yana bir e'tiborli jihati "Oskar" mukofotining 6 nominatsiyasida g'olib deb topilganidir. Ayrim kitobxonlar e'tirof etishicha, film suyuji nimasi bilandir "Alkimyogar"ni yodga soladi.

Navbatdagi hujjatli film ham "The secret" nomi bilan tomoshabinlarga yaxshi tanish, uni roman bilan bog'lab turadigan jihati asardagi Salim shahri podshosi Maliksiddiq tilidan aytiladigan gaplar so'zma-so'z takrorlanadi: "Agar sen biror nimani chindan dildan xohlab, u tomon intilsang, albatta, erishasan, bunda butun koinot senga yordamchi bo'ladi".

URIM VA TUMIM...

Asardagi yana bir element ko'pchilikning qiziqishiga sabab bo'lib kelmoqda, hatto oramizda shunday sovg'aga ega bo'lishni orzu qiladiganlar ham yo'q emas: urim va tumim deb nomlanuvchi toshlar Santyagoga Maliksiddiq tomonidan tuhfa qilinadi. Bu toshlarning qimmatli jihati shunda ediki, tanlov qarshisida qolib, ikkilanib turgan har qanday kishiga yordamga keladi.

Ularning oq ranglisi urim deb nomlanib "Ha", qora ranglisi esa tumim bo'lib, "Yo'q" degan ma'noni anglatadi. Bu har birimizga hayot yo'llarida asqotishi aniq bo'lgan kerakli ashyo. Biroq asarni o'qish davomida shunga amin bo'lish mumkinki, inson uchun eng yaxshisi, qandaydir tosh emas, ko'ksida urib turgan yurak! "Qalbingga quloq sol" degan ibora ham bejiz paydo bo'lmagan.

Shunday ekan, bizda eng yaxshi, qimmatbaho ne'mat – qalb bor, uni hasad, nafrat, keraksiz g'iybatlar bilan iflos qilsak, eng zarur vaziyatlarda faqat "Qaniydi, menda ham urim va tumim toshlari bo'lsa!" deb qolib ketaveramiz.

SANTYAGO

SIZ UCHUN KIM?

Asar avvalidagi oddiygina ispaniyalik cho'pon, sarguzashtalab yigitcha Santyago asar so'ngiga borib olam qalbiga uyg'unlasha oluvchi, Umumtilni o'rgangan Alkimyogarga aylanaadi. Ammo kitobxonlarga yaxshi ma'lumki, u bu darajaga erishguncha juda ko'p mashaqqatlarni boshdan o'tkazdi, bir necha bor o'lim bilan yuzma-yuz keldi. Faqatgina jasorat, ko'zlagan manzildan, maqsaddan qaytmaslik uni xazina sari olib bordi. Santyago misolida hayotda har bir yangi daraja yangi SIZni talab qilishini tushunib olasiz. Roman davomida Santyagoni kitobxon qayta-qayta kashf etib boraveradi.

"Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", deydi dono xalqimiz. Biz esa bu maqolni "o'qigan afzal", deb o'zgartirdik. **Chun-ki loyihamizning maqsadi ham kitobxonlikni targ'ib etish, o'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish, zukko kitobxonlarimizni turli savollar bilan sinash va g'olib bo'lganlarni mukofotlash.**

Loyihamizning bu galgi g'oliblarini aniqlash uchun "Alkimyogar" romani asosida tuzilgan savollarimizni taqdim etamiz:

1. "Orzu yo'lidagi to'rt to'siq"larni sanab bering.
2. Santyago "Uni bunday azobdan xalos etganim bo'lsin", – deganida kimni nazarda tutdi?
3. Qaysi shahar Afrikaning boshqa shaharlariga o'xshamaydi?
4. Kim Santyagoga: "Ehrom degani bu shunchaki bir sangzor-ku. O'zing ham uni hovlingda qursang bo'ladi", – deydi?
5. Taxminan "shunday bitilgan" degan ma'noni anglatuvchi so'z?
6. "Butun umrini bani bashar gapiradigan o'sha yago'na tilni topishga bag'ishladi, shu uchun o'qidi-izlandi", – gap kim haqida ketmoqda?
7. Sarbon nima uchun gulxan yoqishni man qildi?
8. Kim sevgan yorining qumni to'zdirgan shamolday erkin bo'lishini, butlul, yirtqichlar va suvdan ayri tushmasligini istaydi?
9. "Odamlar umuman xazinaga ishonishmaydi". Bu fikr kimga tegishli?
10. Santyago xazinani qayerdan topdi?

Aziz do'stlar, endi asarni o'qib chiqmagan bo'lsangiz mutolaga, o'qib chiqqan bo'lsangiz, savollarga javob topib, bizga yo'llashga shoshiling!!! Javoblarni joriy yilning 15-iyul sanasigacha yoshlar_ovozi@mail.ru elektron pochta manziliga yuborishingiz mumkin.


Diqqat, savollarga birinchi bo'lib to'liq va to'g'ri javob bergan kitobxon g'olib deb topiladi. Hammaga omad yor bo'lsin!

TERMIZ MUHANDISLIK – TEKNOLOGIYA INSTITUTI



Mamlakatimizda 30-iyun — Yoshlar kuni keng nishonlanmoqda. Ushbu fursatdan foydalanib, yurtimiz o'g'il-qizlarini, shu jumladan, viloyatimiz yoshlarini qutlug' sana bilan tabriklaymiz!

Mustaqil O'zbekistonni dunyoga tanitish, uni eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish yo'lida kuch-g'ayratingiz va shijoatingiz hech qachon so'nmasin! Bunday sharafli yo'lda ishtiyoq va intilish bosh a'molingiz, ilm-fan qurolingiz, Yaratgan doim madadkoringiz bo'lsin!



Termiz muhandislik-texnologiya instituti jamoasi

Reklama huquqi asosida

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100063, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 238-79-95.

"Sharaq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxonani manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-755, Adadi – 10584. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

